

**YOSHLARDA FUKAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI
VATANPARVARLIK VA BAYNALMINALLIK TUYG'ULARINI, RIVOJLANTIRISH**

Kadirova Ya. B

Toshkent davlat pedagogika universiteti v.b.dostsenti

Annatsiya: *Yoshlarda fukarolik madaniyatini shakllantirish ularni vatanparvarlik va baynalminallik tuyg'ularini, rivojlantirish yulida amalga oshirilayotgan ijtimoiy xarakat, mexnat an'analari, burch va majburiyatlarni bajarishga nisbatan mas'uliyat, yot mafkuraviy karashlarga nisbatan immunitet, ijtimoiy faollik va fidoiylik kabi sifatlarni shakllantirishga karatilgan tarbiya jarayoni xisoblanadi.*

Tayanch iboralar: *Jamiyat, yoshlarlar, fuqarolar, o'zgarishlar, huquqiy madaniyat, ma'naviy, globallashuv, millat, ma'naviy xatarlar, xalq, tarix, demokratik, qonunlar, vatanparvarlik.*

**РАЗВИТИЕ ИДЕЙНО-МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У
МОЛОДЕЖИ**

Кадырова Я.Б

и.о.доцент Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация: *Формирование гражданской культуры у молодежи рассматривается как воспитательный процесс, направленный на формирование таких качеств, как патриотизм и интернационализм, общественное движение, трудовые традиции, ответственность за выполнение обязанностей и обязанностей, невосприимчивость к чужим мировоззренческим взглядам, социальная активность и самоорганизация. -жертва.*

Ключевые слова: *общество, молодежь, граждане, перемены, правовая культура, мораль, глобализация, нация, моральные риски, народ, история, демократия, законы, патриотизм.*

**DEVELOPMENT OF IDEOLOGICAL AND WORLDVIEW COMPETENCE AMONG
YOUNG PEOPLE**

Kadyrova Ya.B

Acting Associate Professor of the Tashkent State Pedagogical University

Abstract: *The formation of a civic culture among young people is considered as an educational process aimed at the formation of such qualities as patriotism and internationalism, social movement, labor traditions, responsibility for the performance of*

duties and responsibilities, immunity to other worldviews, social activity and self-organization. -victim.

Key words: *society, youth, citizens, change, legal culture, morality, globalization, nation, moral hazards, people, history, democracy, laws, patriotism.*

Asosiy mazmun: Jamiyatni erkinlashtirish, uni ma'naviy jihatdan yangilash bevosita yosh avlodni tarbiyalashda yoshlarning ongida axloqqa asoslangan demokratik qadriyatlarni mustahkamlash orqali ta'minlanadi. Bu esa yoshlarda demokratik jamiyatni qurish eng avvalo, aholini o'zbek xalkining ming yilliklar tarixi, ma'naviy taraqqiyoti, buyuk madaniyati, ma'naviy meros va boy an'analari bilan yaqindan tanishtirish, ular tug'risida yetarli bilimga ega bo'lishlari uchun yetarli sharoit yaratish zarur. Ana shunday sharoitlardan biri - bu ta'lim jarayonida o'quvchilarni milliy tarix, madaniyat va turmush tarzi bilan yaqindan tanishtirib borish, o'quv fanlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mazmuniga milliy qadriyatlarni singdirish erkin, har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish g'oyasi insonning ham milliy, ma'naviy, ham umumbashariy madaniyatni egallashga, ma'naviy - axloqiy va jismonan kamol topishga bo'lgan yangilanishlarni ifodalaydi. Bugungi kunda yoshlarning "axloqiy qadriyat, estetik idealini uyg'unlashtirish, uning ichki tizimini yangicha talqin qilish, zamonaviy fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxsni shakllantirish dolzarb umumnazariy masala va ob'ektiv zaruratdir" [1, -B.5]

Kirish. Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida yoshlarda vatanparvarlik munosabatlarini shakllantirish, shaxs, oila, jamiyat va davlat o'rtasida ijtimoiy munosabatlarga sodiqlik ruhini tarbiyalash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shaxsni ijtimoiylashtirish, demokratik qadriyatlarni asrash va shu bilan birga oilalar mustahkamligini ta'minlash, huquq, erkinlik va majburiyatlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e'tibor berilmoqda [2, -B. 415-419].

Yoshlarda fukarolik madaniyatini shakllantirish ularni vatanparvarlik va baynalminallik tuyg'ularini, rivojlantirish yulida amalga oshirilayotgan ijtimoiy xarakter, mexnat an'analari, burch va majburiyatlarni bajarishga nisbatan mas'uliyat, yot mafkuraviy karashlarga nisbatan immunitet, ijtimoiy faollik va fidoiylik kabi sifatlarni shakllantirishga karatilgan tarbiya jarayoni xisoblanadi. Demak amaliy jihatdan olib qaraganda hozirgi kundagi yoshlarning ahloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash davr taqozasi bo'lsa [3, -B. 59-60]. nazariy jihatdan muayyan jamiyatda boshqarishning demokratiyalashuvi, boshqaruv tizimining modernizatsiyalashuvi inson manfaatlarini ta'minlovchi ijtimoiy muhit yaratilishini taqazo etadi. Chunki, erkinlikni farqlay oladigan inson tafakkurini shakllantirmasdan turib, jamiyatda ijtimoiy muhitni rivojlantirmasdan turib yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirmasdan turib, yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalab bo'lmaydi.

Huquqiy ongi shakllangan yoshlarda, ijtimoiy taraqqiyotda erkinlikka nisbatan ustuvor munosabatning barqarorligini umuminsoniy axloqiy mezonlar doirasida

o'rganish orqali ma'naviy jarayonni yuksaltirishga erishishimiz mumkin. [4, -B. 16-20].

Biroq, har qanday davrda, har bir davlatda erkinlik ham mavjud huquqiy qonunlar, umuminsoniy axloqiy normalar doirasidan chiqsa, o'z mazmunining antipodiga aylanadi, jamiyatni boshqarishda anarxiyaga olib kelad. [5;48].

Metodlar / Metododlogik asoslar. Jamiyat hayotining demokratlashuvi hamda mamlakatni modernizatsiyalash jarayonlari aholining eng katta qatlamini tashkil etayotgan yoshlarning ijtimoiylashuviga hamda ularning tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Fuqarolik savodxonligi madaniyatni rivojlantirishning asosini fuqarolarni eng yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga xosligi tashkil etadi. Matjanov I. [6;237.], U.I.Maxkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, R.Otamurodova kabi tadqiqotchi olimlar talaba-yoshlarning fuqarolik savodxonligi madaniyatini oshirishda milliy qadriyatlardan samarali foydalanish shartlar, Bekmurodov M., Akhmedova F., Kadirova K [7, -B. 579-605] esa fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishning muhim jihatlariga etibor bergan. A.A.Azizxo'jaev, Sh.A.Abbosxo'jaev, E.M.Abzalov, Z.M.Islomov, O'H.Muhamedov, O.T.Nasiriddinova X.T.Odilqoriev, N.Saburov, A.Saidov, U.T.Tadjixanov, X.N To'ychieva, M.A.Xamidova va boshq. fuqarolik madaniyatini yuridik fan nuqtai nazaridan; I.Ergashev, B.Sharipov fuqarolik jamiyatida demokratiya huquq va erkinliklar masalalari, tadqiqotchi Ya.Kadirova [8,-6480-6487] esa sub'ekt-axloqiy yondashuv asosida talabalarning fuqarolik savodxonligi madaniyatini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratganlar.

Yoshlarni siyosiy hayotga qadam qo'yishini ikki bosqichga bo'lish mumkin. Birinchisi, ijtimoiy hayotga kirib kelish, ya'ni bu ijtimoiylashish bosqichi bo'lib, ikkinchisi, bevosita siyosiy hayotda ishtirok etishdir. Masalan, yoshlar siyosatning eng istiqbolli sub'ekti hisoblanadi, bu degani ularning ongini siyosiy xulq-atvorlarini shakllanishi mamlakatning kelajagiga bevosita bog'liq [9.; 38]

Jamiyat siyosiy hayotining modernizatsiyalashishi keng qamrovli jarayon bo'lib, bu sohada shakllangan an'anaviy yondashuvlarni jamiyatdagi sohalarga mos tarzda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy jihatdan bo'lib o'rganish mumkin. Demak yohlarda faol fuqarolik pozitsiyasi va tashabbuskorlikni kuchaytirishda yoshlarimizdagi milliylikka xos bo'lgan g'oyaning o'rnini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy taraqqiyot faoliyat va madaniyatning o'zaro munosabatlarida o'zgarishlarga olib keladi. An'anaviy madaniyat va industrial jamiyatlarda informatsion faoliyat mustaqil sohani tashkil etgan bo'lsa, siyosiy ijtimoiylashuv – bu yoshlarning siyosiy kategoriyalarni anglash orqali siyosiy tizimda individual saylov munosabatlarini shakllantirishdir.

Mazkur bosqichdagi eng asosiy vazifa yohlarda shakllantirilayotgan xususiyatlarning o'ziga xos institutsionallashuvi ularning siyosat to'g'risidagi fikrlarini kengaytirib, siyosiy jarayonlarda mustaqil ishtirok etishiga zamin yaratadi. Siyosiy ijtimoiylashuvning ikkinchi bosqichi yohlarning o'quv faoliyati mobaynida qabul qilgan axborotlarini qayta ishlashi hamda har qanday guruh tomonidan

ko'rsatilayotgan ta'sirga mustaqil mafkuraviy pozitsiyani bayon qilishi, madaniy me'yor va an'analarni qayta baholashi bilan tavsiflanadi. [10, -B. 2278-3075.]

Yoshlarni siyosiy ijtimoiylashtirish quyidagi vazifalarni nazarda tutadi: 1) jamiyat siyosiy tizimi, me'yorlari, qadriyatlari va munosabatlarini takomillashtirish jarayoniga yoshlarning keng jalb etish; 2) siyosiy madaniyat me'yorlarida o'z aksini topgan siyosiy tajribani yangi avlodlarga o'tkazish; 3) yoshlarning mustaqil bilish faolligini oshirish orqali yangi bilimlar va siyosiy tajribani o'zlashtirishi.

Yoshlarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning to'rtta ustuni - faol fuqarolik pozitsiyasi, mafkuraviy profilaktika, mafkuraviy pedagogika, hamkorlik pedagogikasiga asoslangan holda, uning emotsionol-motivatsion, informatsion-kognitiv, faoliyatga doir, aksiologik komponentlari faol fuqarolik pozitsiyasi inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 29-moddasida "fuqarolik pozitsiyasi" tushunchasi quyidagicha ifoda etilgan: "Har bir inson jamiyat oldida burchlidir, faqat shu holatdagina uning shaxsi erkin va to'liq kamol topishi mumkin". O'z navbatida, "Har bir inson o'z huquqi va erkinliklaridan foydalanishda o'zgalarning huquq va erkinliklarini demokratik jamiyatda yetarli darajada bo'lishini hamda hurmat qilinishini ta'minlash, axloq, jamoat tartibi, umum farovonligining odilona talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi kerak"

Natijalar: Fuqarolik - bu shaxsning davlatga huquqiy yoki siyosiy mansubligidir. Shu bilan birga, fuqaro o'z harakatlariga va davlatdagi mavqeiga nisbatan huquq va majburiyatlarga ega bo'lib, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishni ta'minlashga majburdir. Fuqarolik - Konstitutsiyada belgilangan moddalar va qoidalarining amalga oshirilishi - shaxsning huquqlari va uning davlat hokimiyati bilan bog'liq pozitsiyasi to'g'risidagi qonunlar majmuini anglatadi. Fuqarolik pozitsiyasi - bu o'z qonuniy huquq va manfaatlarini barcha qonuniy usullar bilan himoya qilishga intilish va bundan tashqari, boshqa odamlarning huquq va manfaatlariga rioya qilishga befarq bo'lmaslikdir.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida o'quvchilarni ijtimoiy hayotga psixologik tayyorlash, shaxsda fuqarolik immunitetini rivojlantirish, o'quvchilarda huquqiy savodxonlikni oshirish, yoshlarni destruktiv ta'sirlardan himoyalash, odob-axloq qoidalariga rioya qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. O'quvchilarning huquqiy immunitetini rivojlantirishning nazariy jihatlari hamda oilaviy tarbiya tamoyillarini takomillashtirish, pedagogik ta'sirning effektini oshirish, shaxsni ijtimoiylashtirish, oilalar mustahkamligini ta'minlash, bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda

Fuqarolik pozitsiyasi shaxsning fuqarolik fazilatlarini ifodalaydi, bunda shaxs o'zini ijtimoiy munosabatlarning to'la huquqli suveren sub'ekti sifatida belgilaydi, demokratik jamiyatdagi o'rnini, shuningdek, uning hayotiy maqsadlari va ularga erishish yo'llarini belgilaydi. Fuqarolik pozitsiyasi - bu insonni umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni oqilona qabul qilishi, bu insoniy munosabatlarning insonparvarligi, bu insonning boshqa odamlar bilan muloqotida namoyon bo'ladigan qadr-qimmatning

namoyon bo'lishidir. Fuqarolik madaniyati yuqori darajada bo'lgan fuqaro "... jamiyatga beruvchi foydalari va jamiyatdan oluvchi manfaatlari nisbatini teran anglovchi hamda o'z amaliyotida bu nisbatda muvozanat bo'zilmaligiga qat'iy rioya etuvchi sub'ektdir" hamda davomiylik xususiyatiga ega jarayon hisoblansa-da, o'quvchilik yillari bu jarayon uchun poydevordir. Fuqaroni tarbiyalash va unda fuqarolik madaniyatini shakllantirish murakkab. Maktablarda "Ma'naviyat asoslari", "O'zbekiston tarixi", "Konstitutsiyaviy huquq asoslari", "Iqtisodiy bilim asoslari", shuningdek, ta'lim muassasasining yunalishiga ko'ra bir qator mutaxassislik fanlari o'quvchilarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega. Binobarin, bu fanlarni o'qitishda o'quvchilar barkamol shaxs qiyofasida aks etuvchi ma'naviy-axloqiy sifatlar, uning jismoniy layokati hamda ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki haqidagi ma'lumotlar bilan tanishadilar, karakterlariga xos bo'lgan xususiyatlarni tanqidiy baholaydilar va salbiy xulk-atvorlarini yukotishga o'rinadilar.

Fuqarolik madaniyati insonning o'z-o'zini huquqiy, axloqiy va siyosiy qobiliyatini kamolga yetkazishda shaxsning integrativ shakllanishidir. Fuqarolikning asosiy elementlariga axloqiy va huquqiy madaniyat kiritilib, u insonlarda o'z davlatiga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish va boshqa insonlarga hurmat bilan qarashda ifodalanadi. Uning tarkibiy elementlari axloqiy tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi, huquqiy tarbiya kabilardan iborat bo'lib, ular o'zaro bog'liq holda tarkib topadi. Fuqarolik madaniyati davlatning ob'ektiv holatiga, jamiyatda demokratiya va insonparvarlikning rivojlanish darajasiga, har bir fuqaro nuqtai nazarining, o'z-o'zini anglashining shakllanishiga bog'liq.

Fuqarolik madaniyati o'quvchilar tomonidan fuqarolik va bu holatni ifoda etuvchi sifatlar mohiyatini chukur anglay olinishi asosida shakllanadi. Shu jihatdan olganda o'quvchilarni turli mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida fuqaro tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan xatti-harakatlar, ularning ijtimoiy g'oyaviy xususiyatlari bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiqdir. Bu o'rinda kasb-hunar kollejarida tashkil etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ham muhim o'rin tutadi.

Xulosalar: demak xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, hukukiy davlat va fukarolik jamiyatini barpo etish uchun yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash, ularning tafakkurida o'zligini unutmazlik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish, ularda men o'zbek farzandiman, degan g'urur va iftixor bilan yashashga erishish darkor. Albatta ushbu fazilatlar shaxs faoliyatida kamol topadi.

Shunday ekan barkamollik, bilimdonlik, mexnatsevarlik, axloqiy soflik kabi fuqarolarga xos xis-tuyg'ularni shakllantirish, insonparvar, vatanparvar shaxsni voyaga yetkazishda muhim xisoblanadi. Chunki, ushbu fazilatlar insonda ma'naviy-axlokiy salohiyat va ijtimoiy faollikni oshirib, ijtimoiy-iktisodiy taraqqiyotni tezlashtirish bilan birga, fukarolik burchi va vazifalarini bajarish mas'uliyatini

rivojlantiradi. Demak, sog'lom, iymon-e'tikodli, aklan teran, axlokan pok, o'z haq-xuquqlari, burch va mas'uliyatlarini chuqur anglaydigan yoshlarni voyaga yetkazish fuqarolik jamiyatini asosini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Самадов А. Шах эстетик идеалининг шаклланиши ва ривожланиши муаммолари. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Самарқанд: 2020. –Б.5.

2. Kadirova K. RAISING THE LEGAL AWARENESS AND LEGAL CULTURE OF CITIZENS IN SOCIETY //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В4. – С. 415-419.

3. Кадилова Х. Б. Идентичность: воспитание гармонично-развитого человека в семье //Новый университет. Серия: Актуальные проблемы гуманитарных и общественных наук. – 2016. – №. 11-12. – С. 59-60.

4. Кадилова Х. Б. Научное наследие мыслителей центральной Азии //Вестник магистратуры. – 2015. – №. 2-2 (41). – С. 16-20.

5. Мамашокиров С., Тоғаев Ш. Эркин ва фаровон ҳаёт қуришнинг ғоявий-мафкуравий масалалари. – Т.: Маънавият, 2007. –Б. 48.

6. Матжанов И.А. Ҳуқуқий маданият ва огоҳлик.XXI аср интеллектуал авлод асри. Ёш олимлар ва талабаларнинг ҳудудий илмий-амалий конференция материаллари. Нукус, Қорақалпоқ давлат университети, 2015.-237 б

7. Bekmurodov M., Akhmedova F., Kadirova K. Study the process of harmonization formation of personal and professional qualities at students //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. S1. – С. 597-605.

8. Kadirova Yakitjan Buvabaevna, Kadirova Khalima Buvabaevna. METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF LEGAL IMMUNITY OF STUDENTS ON THE BASIS OF A SUBJECT-ETHICAL APPROACH. Journal of Pharmaceutical Negative Results. 2022/12/23. Pp.6480-6487. DOI: <https://doi.org/10.47750/pnr.2022.13.S09.771>

9. Эрматов Ш.А. Ўзбекистонда қишлоқ ёшларининг сиёсий жараёнларда иштироки: ютуқлар, муаммолар ва ечимлар. Дис. сиёсий фан. ном. - Тошкент. 2007. –Б.38.

10. Kadirova H., Akhmedova F. Sociological Analysis of the Nation's Identity, the Levels of Feeling the National Identity in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN. – С. 2278-3075.

11. Жураев Н. Ғоявий иммунитет ёки маънавий ҳалоскорлик тўйғуси. - Тошкент: Ўзбекистон, 2001. 52-бет.

12. Джамшед Саитмурадович Умаров.ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИ БАРПО ЭТИШДА ТАЛАБАЛАРНИНГ ФУҚАРОЛИК САВОДХОНЛИГИГА ЭГА БЎЛИШНИНГ АҲАМИЯТИ //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В8. – Б. 786-790